

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSTAQIL FIKIRLASHNI SHAKLLANTIRISHGA OID STEAM TEXNOLOGIYALARI

Azimjonova Mohichexra Bunyodbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish xususiyatlari haqida bayon etilgan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini sog'lom fikrlashga o'rgatish va mustaqil fikrlash darajasini oshirish, mantiqiy fikrlash - bu fikrlash orqali fikrlashdir yani majoziy tafakkur asosida mantiqiy tafakkur shakllanishi hamda bolalarni STEAM ga jalb qilish, ushbu ta'lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerakligi shuning uchun dasturlarni bolalar bog'chasiga kiritish zarurligi, STEAM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qund, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat-muammoni hal qilish qobiliyati shakllanishi haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *Hamkorlik, mustaqil, kompetentligi, maktabgacha ta'lim, maktabgacha yosh, bolalar, mustaqil fikrlash, faol fikrlash, nutq, shaxs, muloqot, kasbiy, mashg'ulot, dolzarblik komil inson, umumlashtirish*

Аннотация: *В данной статье описаны особенности развития навыков самостоятельного мышления у детей дошкольного возраста. Для приучения дошкольников к здоровому мышлению и повышения уровня самостоятельного мышления, логическое мышление - это мышление через мышление, то есть формирование логического мышления на основе образного мышления, и вовлечение детей в STEAM, такое обучение должно начинаться с дошкольного возраста. возраста необходимость включения программ для детского сада, о формировании у ребенка творческих способностей, энергии, любознательности и способности к решению задач через систему образования STEAM.*

Ключевые слова: *Сотрудничество, самостоятельность, компетентность, дошкольное образование, дошкольный возраст, дети, самостоятельное мышление, активное мышление, речь, личность, общение, профессионал, обучение, совершенный человек, обобщение.*

Abstract: *This article describes the features of developing independent thinking skills of preschool children. To teach preschoolers to healthy thinking and increase the level of independent thinking, logical thinking is thinking through thinking, that is, the formation of logical thinking on the basis of figurative thinking, and the involvement of children in*

STEAM, this education should start from preschool age. the need to include programs for kindergarten, about the formation of creativity, energy, curiosity and problem-solving ability in the child through the STEAM education system.

Key words: *Cooperation, independent, competence, preschool education, preschool age, children, independent thinking, active thinking, speech, personality, communication, professional, training, a perfect person, generalization*

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ota-onalar bilan tarbiyachilarning o'zaro hamkorlik ko'lamini kengaytirish, bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratish kabi yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda qo'l keladigan usul va metodlarni aniqlash hamda nazariy-amaliy jihatlarini belgilash; masalan bulardan: nutq o'stirish mashg'ulotlarida badiiy asarlar misolida bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish metodikasini yaratish; didaktik o'yinlar va ularning bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdagi o'rnini belgilash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish; maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda tarbiyachi kasbiy kompetentligining ahamiyati va bolalarning mustaqil fikrlash darajasini baholash mezonini ishlab chiqish muammolari bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Bolalarning tarbiyaga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim

muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham olimlar tomonidan mustaqil fikrlashga o'rgatish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiq etgan V.M.Karimova, R.Sunnatova, Q.Husanboyeva kabilar mustaqil fikrlashga oid "Bolalarning mustaqil fikrlashga o'rgatish" tadqiqotlar olib bordi hamda o'quv uslubiy qo'llanmalar, hamda shu borada kitoblar chop qildirgan. Biroq, yurtimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish yetarlicha o'rganilmagan. Bundan tashqari bolalarni to'g'ri fikrlashga o'rgatishni bir necha turlari mavjud masalan: taqqoslash, tahlil va sintez, mavhumlashtirish va umumlashtirish, konkretlashtirish. Bu usullarning barchasi maktabgacha yoshda ham ishlab chiqilishi kerak, chunki fikrlashning rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolaning tarbiyasiga ta'sir qiladi, ijobiy xarakter xususiyatlari rivojlanadi, o'zining yaxshi fazilatlarini, mehnat qobiliyatini, faoliyatini rejalashtirish, o'zini o'zi boshqarish va ishonchni, qiziqishni rivojlantirish zarurati ko'p narsani o'rganish va bilish istagi paydo bo'ladi. Aqliy faoliyatning yetarli darajada tayyorlanishi, kelajakda maktabda psixologik ortiqcha yukni yengillashtiradi, bolaning sog'lig'ini saqlaydi. Har qanday fikrlash yaxshi rivojlangan bo'lsa, unga har qanday muammolarni hal qilish osonroq bo'ladi va shu bilan u hayotda katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Masalan: mantiqiy fikrlash - bu fikrlash orqali fikrlashdir majoziy tafakkur asosida mantiqiy tafakkur shakllanadi. Bu tafakkur rivojlanishining eng yuqori bosqichidir mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar bugungi kunda juda dolzarbdir, chunki ular kelajak uchun muhimdir. Maktabgacha ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni tizimli va sifatli amalga oshirish maqsadida Hukumatimiz tomonidan maqsadli qaror va farmonlar ishlab chiqildi, ushbu tizim rivoji uchun katta mablag' ajratilib, tegishli chora-tadbirlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini yangilashga yo'naltirildi. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqildi. Bular quyidagilardir: maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani ¹ yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni

¹ V.M.Karimova, R.Sunnatova, Q.Husanboyeva kabilar mustaqil fikrlashga oid "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish", "Yuqori sinf o'quvchilarining adabiyot darslarida mustaqil fikrlashga o'rgatish" kabi asarlar.

rivojlantirish;maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;Shunday ekan rivojlangan davlatlarning eng ilg'or texnologiyalarini ta'lim sohamizda qo'llashimiz orqali katta yutuqlarga erishishimiz mumkindir. Ta'lim sohasidagi ilg'or texnologiyalardan biri bu STEAM texnologiyasidi. STEAM (Science-fan, technology-texnologiya,engineering-muhandislik,Art-san'at,mathematics-matematika) ta'limi - bu real hayot talablaridan kelib chiqqan holda akademik ilmiy-texnikaviy konsepsiya doirasida integratsiyalashgan holda o'qitishdir.Biz texnologik inqilob davrida yashayapmiz. Kundan kunga yangi texnologiyalar, yangi kasblar paydo bo'lmoqda. Pedagog, tarbiyachi sifatida o'ylash kerakki, biz bolalarga mana shunday yangi texnologiyalar orqali bilim beryapmizmi, biz berayotgan bilimlar hayotda bolaga foydali bo'ladimi, ta'lim mazmuni va texnologiyalari bugungi kundagi maktabgacha yoshdagi bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun qanday moslashtirilishi kerak? 3-7 yosh maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishning muhim bosqichidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarda bilimga qiziqish uyg'otish, ularni turli manbalardan idrok etishga va ma'lumotlardan foydalanishga o'rgatish, atrofdagi voqelikka qiziqqan savollarga mustaqil ravishda javob topish qanchalik muhimligini tushunadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil ravishda tengdoshlar va kattalar bilan hamkorlikda harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir.Bolalarni STEAM ga jalb qilish, ushbu ta'lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog'chasiga kiritish zarur.STEAM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik ,qund, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat- muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi . «STEAM fikrlash» bolalikdan boshlanadi.

Xulosa: STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. Bolalar o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi. Bu esa STEAM texnologiyalarining bugungi kunda yosh avlod uchun juda ham katta o'rni borligini ko'rsatadi. STEAM texnologiyalarining bugungi kunda ommalashayotganini va samaradorligini, ta'limdagi afzalliklarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonlarida STEAM texnologiyalari qo'llash tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.
2. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.
3. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.
4. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.
5. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."
6. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni. 2019 yil 16 dekabr. www.lex.uz
7. Karimova B.M., Sunnatova R.I. Mustaqil fikrlash o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish uslubiyoti. -T; —Sharql, 2000, 6-bet.
8. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi (o'quv-metodik qo'llanma). - T.: "Fan va texnologiya", 2008, 160 bet.
9. Berdaliyeva G.A. Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish // p.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss.avtoreferati. – Toshkent: MTTRMQTMOI, 2019. – 48 b.
10. <https://qalampir.uz/uz/news/maktabgacha-ta-lim-va-tarbiya-tugrisida-gi-k-onun-k-abul-k-ilindi-11861>